

## **BOSHLANG'ICH O'QUVCHILAR VA YUQORI SINIF O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI SAMARALI O'QITISH METODIKA**

***ISAYEVA NILUFAR MUHIDDIN QIZI***

*SamDCHTI Payariq xorijiy tillar fakulteti talabasi*

***Ilmiy rahbar: Abdurazakov Boburjon Sobir o'gli***

*SamDCHTI Akademik litsey katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi hayotimizning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Mazkur ilmiy maqolada yuqori hamda boshlang'ich o'quvchilariga ingliz tilini oson samarali hamda o'quvchilarni qiziqtirish maqsadida turli zamonaviy innovatsion metodikalar orqali o'rgatish usullari bilan tanishingiz mumkin.

**Kalit so'zi:** xorijiy tillar, boshlang'ich, yuqori sinf o'quvchilar, ingliz tili, zamonaviy metodika, innovatsion, IELST, CEFR, maktab

Hozirgi kunda xorij tillarga bo'lgan talab va qiziqish kundan kunga zamon talabiga aylanib bormoqda. Shuning uchun muhtaram yurt boshimiz Shavkat Mirzayev Miromonovich hozirgi yoshlarga juda katta imkoniyatlar yaratib bermoqda. Ingliz tilini o'rganish talabi hozirgi davrda bog'cha vaqtdan boshlanmoqda. Kelajak avlodlarimizga ya'ni jajji kichkintoylarga bog'cha vaqtdan ingliz tiliga qiziqish ko'nikmasi yaratilib bermoqda. Bog'cha vaqtdan ingliz tili o'rgatilsa ancha yaxshi chunki ingliz tili olamiga ertaroq kirib boradi va ingliz tilida boshlang'ich ko'nikma rivojlanib boradi. Masalan ingliz tildan yangi so'zlar o'rganadi shu orqali ingliz tilidagi eshitish va gapirish ko'nikmasi rivojlanadi. Tallafuz chiroyli bo'ladi ingliz tilida asta sekin fikrlay boshlaydi. Bog'chadan keyin maktabda ham ingliz tiliga bo'lgan e'tibor ancha rivojlangan. Jajji o'quvchilar bu vaqtda bilimga chanqoq vaqtda bo'ladi yangi narsalar bilan tanishish o'rganish vaqtida ko'roq narsalar o'rgangilari keladi. Bu paytda

o'quvchilarni qiziqtirib turli zamonaviy metodikalar orqali o'rgansa nur ustida a'lo nur bo'ladi. Boshlang'ich o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatish vaqtida ya'ni dars jarayonida mavzuni turli material orqali yoki o'zining yoshiga mos holda video rolliklar bilan tushuntirgandan keyin “**Tetiklashtiruvchi**” metodikasidan foydalansa o'quvchiga ham o'qituvchi uchun ajoyib metodika. Qisqa qilib aytganda bitta o'q bilan ikkita quyovni o'rgan bo'ladi bu metodikani qo'llasa dars jarayonida.

“**Tetiklashtiruvchi**” o'yin metodini qo'llab yuborasak jajji kichkintoylarimizga yaxshi bo'ladi jismoniy harakatlar orqali o'ynaladi. Bu metod birinchi hamma jajji kichkintoylarimiz o'rinlaridan turib oladi. Ushbu o'yinda 3ta buyruq ketadi va harakatlarni kichkintoylar bilan birgalikda **FIRE**, **AIR** va **WATER** tarbiyachi kichkintoy o'quvchilarga shu 3ta buyruqdan qaysi biri aytsa va shu buyruqni to'g'ri bajargan o'quvchimiz o'yinni davom etadi. Yutqazib qo'ygan o'quvchimiz joyiga o'tirib oladi. Ushbu o'yinda kichkintoylarimiz qanchali diqqatini jamlab olishini tekshirib olamiz. Ushbu o'yinni o'ynasa zerikish yuqoladi. O'yindan so'ng yana mavzuni takrorlab olamiz biron bir metod orqali. Ushbu o'yinni boshlang'ich maktab o'quvchilari ham foydalanishi mumkin. Boshlang'ich maktab o'quvchilari hali endi yozishni o'rganayotgan vaqtda toliqishi mumkin shu paytda charchoqni yuq qilish va qo'llarimizni og'rig'ini qoldirish maqsadida foydalanish mumkin. Ushbu o'yindan keyin charchoqlar unitiladi va o'qishga qiziqish ortadi. Bilamizki, bolalar qiziquvchan.Ular bir xillikdan tez zerikadi. Shuning uchun ularga har doim bir turdagi usullardan foydalanib dars o'tish emas, balki bunday usullarni o'zgartirib, yangilab dars o'tish lozim. Aks holda bolalar o'qituvchining qanday dars o'tishini fahmlab olishadi va bunga tayyorgarlik ko'rishadi. Usullarni yangilab dars o'tish bolalarning intilishlarini oshiradi. Xulosa qilib aytganda,kichik yoshdagi bolalarga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin.

**Game-based learning (game method)** – bu o'quvchilarga har qanday mavzu yoki fanni oson o'rganishda yordam beradigan va tobor ommalashib borayotgan ta'lim strategiyalaridan biridir. 2018- yilda Amerikalik fan olimlari o'tkazgan tadqiqot, o'yin metodi o'quvchilar fanlarni yaxshiroq tushunishida katta va muhim rol o'ynashini yana bir bor isbotlab berdi. O'yin metodidan foydalanish orqali o'qituvchilar o'quvchilarning faolligini oshiradigan qiziqarli o'quv muhitini yaratishlari mumkin. Quyida ingliz tili darsida qo'l keladigan va sinalgan bir nechta o'yinlar haqida malumot berilgan:

**1. Board race** Bu o'yin o'rgatilgan lug'atni qayta takrorlash uchun mo'ljallangan juda quvnoq o'yin hisoblanadi. Bir hafta oldingi o'rgatilgan lug'at bo'ladimi yoki aynan o'sha kun o'rgatilgan lug'at bo'ladimi farqi yoq bu o'yin o'quvchilarga so'zlarni tezda yodlashda va qayta takrorlashda katta yordam beradi. O'yin darsni boshida o'quvchilarni aktiv holatga keltirish uchun foydalaniladi. Bu o'yin qanday olib boriladi?

- Bu o'yin sinfdagi o'quvchilarni ikkita guruhga( joiz bo'lsa, o'quvchilarning soniga qarab 3 yoki 4 ta guruhga) ajratib olishdan boshlanadi.
- Har bir o'quvchiga do'skaga yozishga mo'ljallangan har hil rangdagi markerlar beriladi.
- Va so'zlarni yozish uchun har bir guruhga doskadan chiziqlar chiziq orqali joy ajratiladi.
- Va birorta mavzu aytiladi. O'quvchilar shu mavzuga doir sozlarni 2 daqiqa(har bir guruh ishtirokchisi uchun) ichida yozishlari kerak.
- Har bir guruh har to'g'ri yozilgan va mavzuga doir so'z uchun 1 ballni qo'lga kiritadi.

Bu o'yin grammatika va lug'at boyligini oshirishda yordam beradi.

Hozirgi kunda yuqori sinf o'quvchilarni ingliz tilini o'rganish uchun kimdandir o'rganish shart bo'lmay qoldi. Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarida ingliz tilini o'rgansa bo'ladi ya'ni maktabda o'qtilayotgan bilimlardan qo'shimcha ko'proq bilim olmoqchi bo'lgan o'quvchilarga xos. Yuqori sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatayotgan paytda

bir xil metodikadan foydalanmaslik kerak chunki bir xil metodika o'quvchilarni zeroktirib quyadi bu esa fanga bo'lgan qiziqish so'nishiga olib keladi. Dars jarayoni vaqtida o'quvchini fanga bo'lgan qiziqishini ortish maqsadida unga turli metodikalar orqali ko'proq ma'lumot brrish kerak. Agarda o'quvchilarni boshidan dangasalikka o'rgatib quymaslik kerak. Bu dangasalik juda yomon oqibatlarga olib kelish mumkin asta sekin fanga bo'lgan qiziqishni so'ndiradi. Fanga oid ko'proq ma'lumot berishga harakat qilish kerak metodikalar orqali. Bir xil metodika orqali fanga oid ko'p ma'lumot bermaslik kerak o'quvchiga nagruska bo'ladi. Shuning uchun turli zamonaviy metodikalardan foydalanish kerak.

**Tarjima metodi.** Ushbu metodning nomi, odatda, „taijima metodlari“ termini bilan ko'plikda ishlatiladi. Nomiga ko'ra ma'nosini bilib olish qiyin emas: chet til materiali ona tiliga taijima qilinadi. Yevropada, awalan, yunon tili, keyinchalik lotin tili o'rgatilganda taijima tushunish usuli qilib olingan. XVIII asming ikkinchi yarmi va XIX asr davomida fransuz tili, XX asrda esa ingliz tili va, nihoyat, nemis tili, taijima orqali o'rganib kelindi. Musulmon dunyosida esa asosan arab tili, qisman fors tili chet tillar sifatida o'rganilar edi. O'lik (mas. Lotin) va jonli tillar taijima metodi bilan o'rgatilib, bu jarayon mantiqiy tafakkumi pvojlantirish omili hisoblab kelindi. Arab tili esa islom dini asarlarini o'rgatish vositasi bo'lib, uni ko'pchilik talabalar quruq yodlash orqali o'rganishar edi. Oliy diniy o'quv yurtlarida arab, fors, urkey va boshqa tillar o'rganilgan.

Taijima metodlari orasida eng ko'p tarqalganlari „grammatika- taijima metodi“ va „matn-tarjima metodi“ nomlari bilan mashhur bo'Mgan. Birinchisining namoyandalari so'z va gap taijimasini grammatika qoidalarini o'rgatish uchun tatbiq etganlar, ikkinchisining tarafdorlari esa matnni o'qish va uning mazmunini tushunishda taijimadan foydalanishni maqsad qilib olishgan. Ikkala taijima metodini qoilashdan faqat ta'limiy maqsad ko'zlangan. Chet til retseptiv tarzda o'rganilgan. O'z davrining tilshunoslik va ruhshunoslik ma'lumotlariga asoslanib, chet til o'qitish metodlari ishlab chiqilgan. Ayrim muallimlar hozirgacha taijima metodlari usullaridan noo'rin foydalanishmoqda. Mas. Matnni og'zaki taijima qilish g'ayrimetodik usuldir. Matnning

ayrim jumlalari yoki bir-ikki bo'lagini muayyan maqsadda tajjima qilish man etilmaydi. Lug'atdan foydalanib, yangi so'zlarning ma'nolarini ochish maqsadida tajjima qilishga mo'ljallangan kichik matnlar berilishi mumkin. Bu yerda matnni tajjima qilishdan ko'zlanadigan metodik muddao lug'atdan foydalanishni o'rgatishdir.

**Chet til o'qitish jarayonida metodlar.** „Metod“ terminini ifodalaydigan birinchi tushuncha — chet til o'qitish metodikasidagi tarixiy yo'nalish (tajjima, to'g'ri, aralash, qiyosiy metodlar)ning muxtasar bayoni yuqorida keltirildi. Ikkinchi

ma'nodagi (o'qitish sistemasi — Palmer, Uest, Guen metodlari) tushuncha chet til O'qitish metodikasi tarixida (VII bobda) yoritiladi. Muallim/o'quvchi faoliyati usuli ma'nosidagi „metod“ terminining uchinchi jihati quyida muhokama qilinadi.

Chet til o'qitish jarayonida amaliy foydalaniladigan metodlar uchta: tanishish, mashq qilish va qo'llash. Ushbu uch termin metodik tadqiqotlarda turli nomlar bilan yuritib kelindi. Ko'pchilik tan olgan va o'qitishda bevosita mushohada qilish mumkin bo'lgan mazkur metodlar o'quvchi nuqtayi nazaridan nomlangan. O'quvchining chet til o'rganishdagi vazifasi o'quv material (ya'ni til material) bilan tanishish, ko'nikma va malaka hosil qilish maqsadida mashq qilish hamda o'z fikrini bayon etish chog'ida, ya'ni nutqiy muloqotda tildan foydalanishdan iborat.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Намазова А.А., Досжан Г.А. Modern methods of using games in teaching English. 2019
2. Qodirova G.O., Xudoyorova F., Til o'qitishda o'yin metodidan foydalanish. - Samarqand.:2021.
3. Chet tilini o'qitish metodikasi, - Jalolov Jamol